

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA RAQAMLI PEDAGOGIK MATERIALLAR YORDAMIDA DIQQAT VA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

**N.O. Saidova**

FarDU Maktabgacha ta'lim kafedrası p.f.b.f.d. (PhD), dots.

**Z.R. Abdurahmonova**

FarDU, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19679912>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda raqamli pedagogik materillar yordamida diqqat va tafakkurni rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, raqamli muhitda tashkil etilgan mashg'ulotlarning psixologik-pedagogik xususiyatlari, ularning yoshga mosligi va individual yondashuvni ta'minlashdagi ahamiyati ochib beriladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maqsadli va metodik jihatdan to'g'ri tanlangan raqamli materillar bolalarning bilish faolligini oshirib, tafakkur operatsiyalarini chuqurlashtiradi hamda diqqatning barqarorligini ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** raqamli pedagogik materillar, tafakkur rivoji, diqqat barqarorligi, kognitiv jarayonlar, interaktiv ta'lim, multimediya vositalari, mantiqiy fikrlash, o'yin asosidagi o'qitish, bilish faolligi, individual yondashuv, maktabgacha ta'lim, innovatsion texnologiyalar, didaktik vositalar, psixologik rivojlanish.

Maktabgacha yosh davri bolaning muhim rivojlanish davri hisoblanadi. Ayniqsa, bola kognitiv va xulq-atvor jihatdan jadal rivojlanadi. Bu davrda bolaning sezilarli darajada rivojlanadigan eng asosiy kognitiv qobiliyatlardan biri bu diqqat va tafakkurdir. Diqqat bolaning hayoti davomida bilimlarni o'zlashtirishi uchun kerak bo'ladigan asosiy jarayon bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda chex pedagogi, faylasuf Yan Amos Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida "Inson ongi -Bilinga shunchalik sezilmas sezgirlik bilan ajralib turadiki, u tubsizlikka o'xshaydi, aqlning chegarasi yo'q" -deb ta'kidlab o'tgan. Aqliy tarbiya tabiatan insonga berilgan tafakkur kuchi hisoblanadi, bolalarning biluvchanlik qobiliyatining kuchli ekanligi uning tafakkuri yaxshi rivojlanganligini va aqliy tarbiyasi yuqori ekanligidan dalolat beradi.<sup>1</sup>

Ba'zi bolalar tug'ma shunday bo'lsalar ba'zilar uni hayot yo'li davomida turli bilimlarni olish ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'zlashtirish yo'li bilan oshirib boradilar. Aqliy tarbiyasi bor bolalar teran va mustaqil fikr yurita oladi va mustaqil qarorlar qabul qilishda hamda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga harakatni to'g'ri yo'naltira olishda qiyinchiliklarga duch kelishmaydi. Shu sababli ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aqliy tarbiyani amalga oshirishda bolalar tafakkurini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

L.S.Vigotskiy ta'limining aqliy rivojlanishdagi etakchi rolini ta'kidlar ekan, "Ta'lim rivojlanishning faqat tugallangan darajasi asosida qurilmasdan, avvalo hali unga tarkib topmagan narsalarga tayanmog'i kerak.

<sup>1</sup> Komenskiy Ya.A. "Buyuk didaktika". - Sevimli. ped. Op. M., Uchpediz, 1955 yil.

Ta'lim bolaning rivojlanishidagi kechagi kunga emas, balki ertangi kunga tayanmog'i lozim deb, L.S.Vigotskiy ta'limining aqliy rivojlanishdagi etakchi rolini ta'riflab bergan.<sup>2</sup>

Diqqat - bolaning ma'lum bir faoliyatga e'tibor qaratishi va uni saqlab turish qobiliyatidir.

Maktabgacha yoshda diqqat asosan ixtiyorsiz bo'ladi, ya'ni qiziqarli, rangli va harakatli narsalar orqali jalb etiladi. Bu komponentlarning har biri bolaning o'z atrofidagilar bilan aloqada bo'lishi va yoshiga mos mashg'ulot bilan shug'ullanishida e'tiborli, ammo o'zaro bog'liq hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va diqqatni rivojlantirish bir xil faoliyat emas, aksincha, irsiyat, atrof- muhit va hayotiy tajribalar asosida alohida o'zgaruvchanlikni namoyon qiladi. Bolalarda go'daklik davrlaridan maktabgacha yoshga o'tayotganda, ularning qobiliatlari diqqatni jamlash, o'z-o'ziga xizmat qilish va aqliy rivojlanish qobiliyati kabi bosqichlardan o'tadi.

Erta bolalik davrida bolalar diqqat qobiliyatini nazorat qilish, davomiylik va moslashuvchanlikni oshirish holatiga o'tishadi. Bu jarayonlar bolalarning ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishi, muhim aqliy va bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi uchun ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli ota-onalar va pedagoglar uchun bolalarda diqqatni rivojlantirishga qaratilgan amaliy ko'nikma tavsiyalar bolalarda umumiy kogitiv muvaffaqiyatlariga hissa qo'shadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat va tafakkurni rivojlanishi miya ichidagi neyron hujayralarining rivojlanishi va yangidan hosil bo'lishi bilan bog'liq jarayondir. Ushbu o'zgarishlar erda bolalik davrida diqqat va tafakkur jarayonlarini bosqichma-bosqich takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu ularga diqqatni chalg'itadigan narsalarni e'tiborsiz qoldirib, kerakli vazifalarga qaratishga imkon beradi. Bu davrda bolalar asta-sekin diqqatni yanada tartibga solish qobiliyatiga ega bo'lishadi. Bolalar asta-sekin chalg'itadigan narsalarni e'tiborsiz qoldirib, diqqatni yanada uzoq vaqt mobaynida ushlab turishga va kerak bo'lganda diqqatni o'zgartirishga erishadilar. Ushbu o'zgarishlar bolalarning turli xil tadbirlarda hisoblash, ijtimoiy tadbirlarda emotsional intellektni yuqori bo'lishiga va erda savodxonlik qobiliyatlarini qo'llab quvvatlaydi. Bu jarayonlarni tushunish amaliy ahamiyati katta bo'lib, tarbiyachilar uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning neyron qobiliyatlariga mos keladigan va ularning aqliy rivojlanishi uchun o'quv muhiti va mashg'ulotlarini rejalashtirishlari mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni rivojlantirishning bosqichlari bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar bolaning shakllanish davrida bolalarning diqqat qobiliyatlarini qanday rivojlantirish haqida tushuncha beradi. Rivojlantirishning ushbu bosqichlarini bilish ota-onalar va tarbiyachilar uchun muhim hisoblanib, ushbu jarayonni muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi. Ular quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Go'dak va yosh bolalar (0-2yosh) da doimiy diqqat hayotining dastlabki oylarida chaqaloq qisqa vaqt ichida diqqatni muayyan narsaga qaratishi mumkin. Chaqaloqlar tabiiy ravishda yangi va sezilarli chaqiriqlarga jalb qilinadi, bu esa diqqatni birinchi belgilarini namoyon qiladi. Chaqaloqlar chalg'itadigan ishlarga va tovushlarga juda sezgir bo'ladi.

Maktabgacha yosh (3-5) dagi bolalarda diqqatni ushlab turish qobiliyati sezilarli darajada darajada yaxshilanadi.

<sup>2</sup> M.Xolnazarova //«YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA » kursidan ma`ruzalar matni .//Guliston//2015//

Bu yoshdagi bolalar hikoya tinglash, o'yin o'ynash kabi faoliyatlar bilan mashg'ul bo'lishlari mumkin. Bunda bolalarda muayyan vazifalarga tanlab qatnashishlari va chalg'ituvchi narsalarga diqqat qilmasliklari mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatni jamlash uchun guruh bo'lib shovqinni talab qiladigan loyihalar va o'yinlar bilan shug'ullanishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nozik tafsilotlarga ko'proq diqqat berishadi, bu erta savodxonlik va hisoblash qobiliyatlarini rivojlantrish uchun muhim hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi (5-6) yoshdagi bolalarda diqqatni yanada samaraliroq boshqarish qobiliyati oshadi. Ushbu diqqat qobiliyatlari o'quv faoliyati davomida yanada barqarorlashadi.

Diqqat ko'nikmalari yanada aniqlangani sayin, bolalar ta'lim vazifalarini bajarishda faolroq ishtirok etadilar va o'quv topshiriqlarini bajarish qobiliyati yanada mustahkamlanadi.

Diqqat rivojlanishidagi ushbu bosqichlar taxminiy va individual ekanligini, ba'zi bolalar bu bosqichlarga boshqalarga qaraganda erta yoki kechroq rivojlanishlari mumkin. Bundan tashqari irsiy moyillik, ijtimoiy muhit va tarbiya diqqat va tafakkur rivojlanishi uchun bevosita ta'sir qiladi.

Ota-onalar, tarbiyachilar bolalarning ushbu bosqichlarini bosib o'tishlari uchun qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishlari kerak.

Tafakkur-inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, voqelikdagi narsa va hodisalarni fikran aks ettirish jarayonidir. Tafakkur- inson miyasidagi alohida funktsiya hisoblanib, inson u orqali fikr, mulohaza, g'oya va faraz kabilarni vujudga keltiradi va ular inson ongida tushunchalar, hukmlar shaklida ifodalanadi. Zero, fikrlash nutq shaklida namoyon bo'ladi. Inson tafakkuri va nutqi hamda ongi bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. Binobarin, inson muayyan qonun va qoidalarga asoslangan holda hodisalarni oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga egadir.

“Olimlar orasidagi ba'zi xilma-xillik aqliy rivojlanishda bilimlarning roli qandayligi haqidagi masalani keltirib chiqaradi. Masalan, A.N.Leontev bilimlar bilan aqliy rivojlanish, xuddi shunday rivojlanish o'rtasida aniq teng ishorasini qo'yadi. Uning fikricha, insoniyat tajribasini “o'zlashtirish” butunlay bola yashayotgan va rivojlanayotgan ijtimoiy sharoitlarda qo'lga kiritilganligi bilan xarakterlanadi. Boshqa olimlar (E.N.Kabanov-Meller, V.A.Krutetskiy) bilimlarni ahamiyatini pasaytirmaydi, biroq uni mutlaqlashtirmaydi ham. Ular bilim aqliy rivojlanish sharti sifatida aks etadi, lekin uning tuzilishiga kirmaydi, deb hisoblashadi. Mazkur mualliflarning fikricha, aqliy rivojlanish faqatgina bilimni o'zining emas, insonning mazkur bilimni yangi sharoitlarda o'zlashtirish, qo'llay olish, uzatish imkoniyatidan kelib chiqadi”.<sup>3</sup>

Tafakkur bolaning maktabgacha yoshdagi davrda juda tez rivojlanadi. Bolalarda nutqning rivojlanganligi va hayot tajribasining ko'payganligi bolalarning juda ko'p va erkin harakatlar qilish imkoniyatini beradi. 3 yoshdab oshgan bolalarning tafakkuri ko'rgazmali-obrazli xarakterga ega bo'ladi. Ko'rgazmali-obrazli tafakkur nutq bilan ko'proq bog'liq bo'ladi ya'ni ketma-ket amalga oshiriladi. Bolalar ko'rgan narsalarini haqida mulohaza yuritib, bu ko'rgan narsalarini nomini ataydilar.

4-5yoshli bolalar nutqni jadallik bilan o'zlashtiradilar va bu davrni mantiqiy tafakkurni egallashga tayyorgarlik davri deyish mumkin. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi.

<sup>3</sup> Shoista Sodiqova //Maktabgacha pedagogika//Toshkent//2013//

6-7yoshda esa mantiqiy tafakkurni barcga imkoniyatlari yuzaga kelgan bo'ladi. Bolalarda birinchi so'zlar bilan ifodalanadigan tasavvurlar yuzaga kela boshlaydi. Lekin bu tasavvurlar birdaniga tushunchaga aylanib qolmaydi. Tushunchalarni hosil qilishda bu tushunchalardan foydalangan holda hosil qilishadi. Tushunchalar esa mantiqiy tafakkurni tarkib toptiradi. Bunda bolalar har xil masalalar va savollarni aql bilan bilan yecha oladigan bo'ladilar. Bu esa tafakkurni rivojlanishi uchun katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar qancha ko'p narsalar haqida bilganlari sari ularning ichki xususiyatlari haqida qiziqqa boshlaydilar. Shu sababli ular juda ko'p savollar bera boshlaydilar. Bolalarning savollariga doimo ahamiyatli bo'lmoqlik kerak. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki savollariga ahamiyat berilmasa, bolalardagi qiziqish va sinchkovlik so'na boshlaydi. Bu esa ulardagi koginitiv qobiliyatni susayishiga olib keladi. Shu sababli ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning son-sanoqsiz savollariga ularni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda javob berishlari va to'g'ri tushuntirishlari kerak. Chunki, tafakkur jarayoni biron narsani tushunmaslik yoki biron savolga javob topa olmaslik natijasida yuzaga keladi.

Bolalar juda qiziquvchan harakterga ega bo'ladilar. Ular hodisalarning sababini bilishga, hamma narsa bilishga intiladilar. Bu bolalarning bilish jarayoni bilan bog'liq hodisadir. Zero, qiziqish bolalarning bilimlarini chuqurlashtiradi. Demak, maktabgacha yosh davridagi bolalar jadal rivojlanib borar ekan ularni har tomonlama rivojlantirish taraqqiy ettirish maktabgacha ta'lim tashkilotio va tarbiyachilarining muhim vazifasi hisoblanadi. Bu esa ota-onalardan ham katta ma'suliyat talab qiladi.

Maktabgacha yosh davri bola rivojlanishining eng muhim davridir. Aynan shu davrda diqqat (e'tibor) va tafakkur (fikrlash) jadal rivojlanadi. Bu jarayon to'g'ri tashkullangan ta'lim va tarbiya hamda didaktik o'yinlar orqali samarali rivojlanadi. Bu mashg'ulotlar har xil didaktik materiallar va raqamli texnologiyalar yordamida yanada qiziqarliroq va tushunarli bo'ladi.

Shuningdek diqqat va tafakkurni rivojlantirish usullariga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik o'yinlar (Farqini top, qaysi biri ortiqcha )
2. Rang va shakllar bilan ishlash (Rangiga qarab ajratish, shakliga qarab guruhlash)
3. Eshitish diqqatini rivojlantirish (Tovushni top,ertakni tinglash)
4. Harakatli o'yinlar (qizilda to'xta-yashilda yur)
5. Konstruktor va mozaika o'yinlari (qurish-yasash)
6. Mantiqiy savollar berish (Nima uchun?Qanday qilib?)
7. Ertak va hikoyalar haqida suhbat.
8. Taqqoslash mashqlari
9. Aqliy hujum savollari
10. Muammoli vaziyatlarga yechimlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va diqqatni rivojlantirish ularning kelajakdagi ta'lim va tarbiya faoliyatiga katta ta'sir o'tkazadi. Bu jarayon raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilingan holda amalga oshirilsa, faoliyatlar yanada samarali amalga oshadi va katta natijalarga olib keladi. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni taffakurini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarini mnemonika texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali rivojlantirishda qo'llashning yana bir muhim jihati shundaki, bu usul bolalarning logic tafakkurini, tasavvurini rivojlantiradi.

Misol uchun, raqamlar ketma-ketligini eslab qolish uchun tarbiyachi raqamlarni qiziqarli obrazlar orqali raqamli texnologiyalar yordamida bolalarga taqdim qilganida bolalarga tushunarli va qiziqarli bo'ladi. Bolalar bu raqamlarni shunchaki yodlash o'rniga ularni bir- biriga bog'liq hikoya shaklida ko'radi, bu jarayon esa bolalarni xotirasi uzoq muddat saqlanib qolishiga tafakkurini rivojlanishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun//16.12.2019// O'RQ-595-son
2. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi ikkinchi nashri //2022//
3. Komenskiy Ya.A. "Buyuk didaktika". - Sevimli. ped. Op. M., Uchpediz, 1955 yil.
4. M.Xolnazarova //“YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA” kursidan ma'ruzalar matni.//Guliston//2015
5. Shoista Sodiqova //Maktabgacha pedagogika//Toshkent//2013